


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2025- yilning 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 13 534 tani tashkil qilmoqda. Ularning soni 2024 yilning shu davriga nisbatan 81,2 foizni tashkil qildi.




**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**  
2024- yilning yanvar-dekabr oylarida (jamiga nisbatan foizda)  
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)





2024- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 74,5 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 9,1 birlikni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-dekabr holatiga 4 356 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,5 foizga kam demakdir.



**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da**





### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning 26,7 foizini, sanoat sohasida 21,4 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida 28,4 %, qurilishda 3,6 % va boshqalarda 19,9 % ni tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– 11 779,6 mlrd so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 51,1 %) o‘zlashtirildi va 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 106,8 % ga o‘sdi;

– qurilish ishlari hajmi 5 584,8 mlrd so‘mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 88,9 %) va 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 113,2 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 7 014,4 mlrd so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 27,2 %) tashkil qildi;

– 14 888,5 mlrd so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 74,2 %), 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 113,2 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 3 629,8 mlrd so‘mni (jami chakana tovar aylanmasining 31,3 %) va 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 123,2 foizni tashkil qildi;

– jami 131,9 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 63,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, jami 424,9 mln AQSH dollari (umumiy import hajmining 23,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 33 324,0 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 92,2 %) 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 98,6 foizni tashkil qildi;


– avtomobil transportida 90 304,0 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 94,3 %) 2023 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,2 foizni tashkil qildi;

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,5 foizni, sanoatda 27,2 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 98,2 foizni, qurilishda 88,9 foizni, eksportda 63,4 foizni tashkil qilgan.




Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari  
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd so'mda)

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Viloyatda eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (2 400,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (766,8 mlrd so'm) va Forish (712,3 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (3 146,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (1 368,5 mlrd so'm), G'allaorol (763,2 mlrd so'm) va Baxmal (690,3 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>27,2</b>	<b>88,9</b>	<b>74,2</b>	<b>98,2</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	42,1	89,2	48,9	90,6
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	89,4	77,1	99,4
Baxmal	98,0	93,5	77,0	99,4
G'allaorol	1,4	94,8	70,7	99,5
Sharof Rashidov	99,9	100,0	87,1	99,3
Do'stlik	15,1	93,4	74,4	99,7
Zomin	41,0	61,8	70,0	90,4
Zarbdor	78,9	93,7	75,3	99,5
Zafarobod	7,2	84,7	76,6	99,0
Mirzacho'l	37,3	92,3	64,1	98,3
Paxtakor	34,5	97,5	63,3	97,7
Forish	64,7	94,9	82,0	98,8
Yangiobod	100,0	79,2	83,7	99,3

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (7,2 %), G'allaorol (1,4 %) tumanlarida kichik, Arnasoy (100,0 %), Yangiobod (100,0 %), Sharof Rashidov (99,9 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etmoqda.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi Zomin (61,8 %), Yangiobod (79,2 %) hamda Zafarobod (84,7 %) tumanlarida kam foizni tashkil etadi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (48,9 %), Paxtakor tumani (63,3 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.